

**"TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN
XOTIN-QIZLAR VA ULARNING VOYAGA
YETMAGAN FARZANDLARIGA
IJTIMOIY XIZMATLARNI KO'RSATISH
TIZIMINI YO'LGA QO'YISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"GI
QAROR**

VMQ-354-son 25.06.2024-y

Qarorning asosiy maqsadi:

Xotin-qizlar yoki ularning bolalari uyda yoki boshqa joylarda **tazyiq va zo'ravonlikga** uchrasa, ularga **tez yordam berish, himoya qilish va qo'llab-quvvatlash** tizimi yordam berishi haqida. Ya'ni, bunday vaziyatda ular yolg'iz qolmasin, maxsus odamlar yordamiga ega bo'lsin, xavfsiz bo'lsin va kerak bo'lsa ularni **ovqat, uy, maslahat va boshqa yordamlar bilan ta'minlash** mumkin bo'lishini nazarda tutadi



Xo'sh, zo'ravonlik nima?



Zo'ravonlik — bu kimnidir **urish, ranjitish, qo'rqitish** yoki yomon gaplar aytish orqali **zarar yetkazishdir**. Masalan, kimdir boshqa odamni **kaltaklasa**, doim **yomon gaplar aytsa** yoki **qo'rqitib**, qo'lidan kelmaydigan ish qilishga **majbur qilsa** — bularning barchasi **zo'ravonlik** hisoblanadi

Agar **ayollar** yoki ularning **bolalari** uyda yoki boshqa joyda kimdir tomonidan **zo'rlik** yoki **tazyiqqa** duch kelsa, ularga **yordam berish tartibi** shu Qarorda yozilgan. Kimdir bunday vaziyatni ko'rsa yoki bilsa, **davlat organlariga yordam so'rab murojaat qilishi** mumkinligini tushuntiradi



Bunday **vaziyatlarda tazyiq yoki zo'ravonlikka** uchragan shaxslar, shuningdek boshqa fuqarolar va tashkilotlar **“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari** yoki **ijtimoiy xodimga, ichki ishlar organlari** navbatchilik qismining **“102” telefon raqami** bilan birga **1146 qisqa raqamli “ishonch telefoni”ga** ham **xabar berishlari** kerak bo'ladi



Profilaktika inspektori:

xotin-qizlarga himoya orderini rasmiylashtirish va zarur bo'lsa, ularni **birlamchi ko'mak** xonalariga joylashtirish uchun kerakli hujjatlarni tayyorlaydi

jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy, psixologik va huquqiy xizmatlar kerak yoki kerak emasligini aniqlaydi hamda bu haqdagi ma'lumotlarni "**E-himoya orderi**" elektron tizimiga kiritadi


tazyiq va zo'ravonlik qilgan shaxs bilan **suhbat** o'tkazadi



● Ijtimoiy xodim xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarining holatini **dastlabki tarzda** baholaydi

● Shundan keyin Xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari roziligi asosida birlamchi ko'mak xonasiga joylashtiriladi. Agar ular birlamchi ko'mak xonasiga joylashtirilishga rozilik bildirmasa, "**Inson**" markazlari orqali boshqa yordamlar ko'rsatiladi

Xotin-qizlarning tanloviga qarab ularga quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi:



- **psixologik** yordam ko'rsatish
- shoshilinch **tibbiy yordam** olishga yordam berish
- qonunchilikka muvofiq **huquqiy xizmatlar** ko'rsatish
- **himoya orderini** olishga yordam berish
- xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarining yo'qolgan **hujjatlarini qayta tiklashga** yordam berish
- **"Inson" markazlari** ko'rsatmaydigan boshqa davlat xizmatlaridan foydalanishga yordam berish
- kasb-hunar o'rganishni xohlagan xotin-qizlarga hududlardagi monomarkazlar va kasb-hunarga o'qitish markazlarida kasb o'rganish uchun **yo'llanma** berish